

XALQ TA'LIMI TIZIMIDA O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH ISHLARI, MUAMMO VA ULARNING YECHIMLARI

Dilbar Eshpulatova.

Samarqand viloyati Nurobod tumani 64-maktab Amaliyotchi Psixologi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7066129>

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada ta'lim tizimida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha amalga oshirayotgan islohotlari, tizimdagi muammolar va ularga yechimlar keltirilgan

KALIT SO'ZLAR: metodik tavsiyanomalar, yangi texnologik tizim, masofaviy mehnat, raqobatbardosh kasblar, "Texnologiya" fani

Bugungi kunda umumta'lim maktablarining eng zarur hayotiy vazifalardan biri o'quvchi-yoshlarni kasb tanlashga to'g'ri yo'naltira olishdir. Bu sohada ota-onalar bilan hamkorlikda ish olib borish juda ham muhim hisoblanadi. Respublikamiz mustaqilligidan keyingi yillar davomida bu sohaga jiddiy e'tibor berila boshlandi, ta'lim sohasi rivoji uchun yetuk mutaxassislar, olimlar jalb etildi, ular tomonidan ilmiy-amaliy qo'llanmalar, darsliklar, metodik tavsiyanomalar yozilib, o'quvchi-yoshlarni kasbga yo'llash ishlari bo'yicha amaliy ishlar boshlab yuborildi. Bugungi kunda jahon mehnat texnologiyasi va psixologiyasi tezkorlik bilan rivojlanmoqda. Yevropa, Amerika va Osiyo qit'alaridagi rivojlangan mamlakatlar 21 asrning birinchi choragida malakali kadrlar yetkazish, ularni yangi, zamonaviy, murakkab texnikalarga o'rgatish maqsadida yangi texnologik tizim dasturini ishlab chiqarmoqdalar. Shuning uchun ham ayni damda barcha ishlab chiqarish, iqtisodiyot, qishloq xo'jaligi sohalarini tezkor rivojlantirish imkonini beradigan keng tarmoqli malakali kadrlarning yangi avlodini tayyorlash zarurati sezilmoqda. Darhaqiqat, raqobatga bardosh beradigan kadrlar tayyorlamasdan turib, raqobatbardosh iqtisodiyotni barpo etish ham mumkin emas.

ASOSIY QISM

Mamlakatda masofaviy mehnat shakllarini rivojlantirish, ta'lim muassasalari bitiruvchilari va yoshlarning zamonaviy kasb-hunar egallashlari uchun sharoitlar yaratish hamda qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ularning har tomonlama yetuk malakali mutaxassis bo'lib yetishishlarini ta'minlash maqsad qilingan.

Prezidentning "O'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga tayyorlash tizimini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori loyihasi e'lon qilindi.

Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligining umumiy o'rta ta'lim muassasalarida O'quvchi yoshlarni kasb-hunarga tayyorlashning yangi tizimini joriy etish

to'g'risidagi takliflariga rozilik beriladi. Quyidagilar yangi tizimni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari etib belgilanadi:

- ichki va xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh kasblarga bo'lgan ehtiyojni aniqlash va zarur malakaviy ko'nikmalarni belgilash;
- umumiy o'rta ta'lim muassasalari mutaxassislari tomonidan o'quvchilarni 7-sinf dan boshlab kasb-hunar egallash va Internet tarmog'i orqali xizmatlar ko'rsatish (ishlar bajarish) yo'li bilan o'zini o'zi band qilish yo'nalishlariga qiziqishlarini aniqlash va bunday o'quvchilarning ma'lumotlari bazasini yaratish;
- kasb-hunar egallash va frilansingga qiziqishi yuqori bo'lgan o'quvchilar ma'lumotlari bazasini umumiy o'rta ta'lim muassasalari bitiruvchilari bandligi elektron bazasi bilan integratsiya qilish, onlayn monitoring olib boruvchi axborot tizimini yaratish;
- umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarining kasbiy moyilligi bo'yicha o'tkazilgan tahlillar asosida 9-sinf dan so'ng kelgusida aniq ishchi kasblar bo'yicha kasb-hunar maktablarida ta'lim olishi mumkin bo'lgan o'quvchilar o'rtasida kasbga yo'naltirish ishlarini olib borish;
- Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan ro'yxatlar asosida kam ta'minlangan oilalar farzandlari bo'lgan 10-sinf o'quvchilariga ularning qonuniy vakili roziligi asosida kasb-hunar va frilansingga o'rgatuvchi barcha davlat va nodavlat tashkilotlarda o'qish xarajatlarini qoplovchi hujjatlar (vaucherlar) berish;
- bitiruvchilar uchun tegishli kasblar bo'yicha o'quv reja va dasturlar, amaliyotlar o'tash tartibi, o'quv-metodik qo'llanmalar ishlab chiqish va joriy etish;
- umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarini kasbga yo'naltirish ishlarini samarali shakllarini ishlab chiqish va joriy etish;
- umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 10–11-sinf o'quvchilariga tanlov fanlari yo'nalishidagi (variantiv) o'quv reja asosida kasb-hunarga yo'naltirish;
- manfaatdor vazirlik va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan birgalikda hamda tadbirkorlik sub'yektlari bilan hamkorlikda kasb-hunar yo'nalishlari bo'yicha sertifikatga ega umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 11-sinf bitiruvchilarini ish bilan ta'minlashga ko'maklashish;
- respublika ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlikda ilg'or xorijiy tajriba asosida umumiy o'rta ta'lim muassasalari bitiruvchi sinf o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltiruvchi va o'rgatuvchi mutaxassislar malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslarini tashkil etish.

Bugungi kunda mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimida olib borilayotgan keng

qamrovli islohotlarning asosiy maqsadlaridan biri yoshlarni chuqur bilim olishlari, iste'dodlarini ro'yobga chiqarishda har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shu bilan birgalikda ularning mustaqil hayotga tayyorlash ko'nikmalarini ham shakllantirib borish ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Aynan shuning uchun zamonaviy bilim olish bilan bir qatorda o'quvchi yoshlarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirib borish, oddiy qilib aytadigan bo'lsak, yoshlarni kasb tanlashga, ularni ijodiy fikrlashga, yoki konstruksion buyumlardan materiallar yasash, oddiygina elektr chirog'i patronini o'rnatish, uydagi suv tarmoqlari tizimlari to'g'risida, shuningdek, oddiy yog'ochga ishlov berish, uy ro'zg'orda kichik ta'mirlash ishlari va hokazolar kabi hayotiy kasbiy ko'nikmalarni to'liq yetkazib berolmayotganligimiz hech kimga sir emas.

Biz yoshlar tarbiyasida "Texnologiya" faniga hayotiy ehtiyoj sifatida qarashimiz bilan o'quvchini betartiblik va dangasalik kasalliklariga chalinishini oldini olibgina qolmay, uning kelajakdagi ma'lum bir kasb egasi bo'lishiga zamin yaratamiz. Aks holda o'sib kelayotgan yosh avlod o'z holiga tashlab qo'yilganda mehnatga bo'lgan tabiiy intilishi so'nadi va o'z mehnatidan qanoat hosil qilishni esa o'yin-kulgidan qidira boshlaydi. O'yin-kulgida rivojlangan ehtiyoj mehnatga bo'lgan tabiiy ehtiyojni batamom siqib chiqarishi moddiy va ma'naviy qashshoqlikka olib keladi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, respublikamizda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlarining zamirida davlatimizni yetakchi demokratik davlatlar ko'rsatkichiga chiqarish bosh maqsadi yotibdi.. O'quvchilarda o'zlarining qiziqishlari asosida kasb tanlashga yo'llash bugunning dolzarb masalalaridir. Mehnat ta'limi darslari va tabiiy fanlarni o'qitishda o'quvchilarni kasbga yo'llash imkoniyatlari chegaralanganligi sababli ularni to'garak faoliyatida amalga oshirish mumkin.To'garaklarda o'quvchilarni bajaradigan faoliyatidan kelib chiqib kasblarga yo'naltirish imkoniyatlari kattadir.

ADABIYOTLAR:

1. Nazarova, M. (2021). Yoshlarning ijtimoiy-psixologik muammolarining oldini olish va ularni bartaraf etish. Центр научных публикаций (buxdu. uz), 7(7).
2. O'quvchi yoshlarni kasb-hunarga tayyorlashning yangi tizimi joriy etiladi - Prezident qarori loyihasi
3. Mustafiqizi, N. M. (2021). Psychology of the Leader. Journal of Ethics and Diversity in International Communication, 1(4), 34-36.
4. Mustafiqizi, N. M. (2021). The Effect of Communication Process on the Psychological Development of a Person. International Journal of Development and Public Policy, 1(4), 109-111.

5. Umedjanova, M. L., Salikhov, S. M., & Salikhov, T. M. (2022). The Role of National Education in Preparing Young People for Family Life. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(2), 271-276.